



SANOAT KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA AYLANMA MABLAG'LARDAN SAMARALI FOYDALANISH XUSUSIYATLARI

Nurmatov Mirzaakbar Mirzaaliyevich

Muhammad al-Korazmiy nomidagi Toshkent

axborot texnologiyalari universiteti Farg'onalar filiali mustaqil tadqiqotchisi

ARTICLE INFORMATION

Volume: 1

Issue: 6

DOI:https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss6/a10

ABSTRACT

Ushbu maqolada sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda aylanma mablag'lardan foydalanish va samaradorligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari borasida tadqiqotlar olib borilgan. Sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda aylanma mablag'lardan samarali foydalanish, aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

KEYWORDS

moliyaviy barqarorlik, pul mablag'lari, aylanma mablag'lari, aylanma mablag'lar samaradorligi.

Kirish

Iqtisodiyot tarmoqlarini ustuvor rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish va ishlab chiqarish uzlusizligini ta'minlashga qaratilgan davlatning izchil siyosatini davom ettirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Buning natijasi sifatida korxonalarining moliyaviy barqarorligi ko'p jihatdan aylanma mablag'lardan samarali foydalanish asosida ishlab chiqarishni ustuvor rivojlantirishga bo'lgan ilmiy va uslubiy asoslarini takomillashtirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining Xalqaro standartining 36-sonli "Aktivlarning qadrsizlanishi" bo'limida bevosita korxonalarda "Pul mablag'lari hosl qiluvchi birlik - bu boshqa aktivlar yoki aktivlar guruhlaridan kelib tushadigan pul mablag'lari kirimlaridan ahamiyati darajada mustaqil tarzda pul mablag'lari kirimlarini hosl qiluvchi eng kichik identifikatsiyadanigan aktivlar guruhidir" deb ta'rif berilgan [1].

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2022 yil 9-dekabrda 3400-son bilan ro'yxatga olingan me'yoriy-huquqiy hujjatda korxonaning operatsion faoliyat bo'yicha pul oqimlari birinchi navbatda tashkilotning asosiy daromad keltiruvchi faoliyatidan kelib chiqishi, ular odatda foya yoki zararni aniqlashda hisobga olinadigan operatsiyalar yoki boshqa hodisalar natijasi hisoblanishi keltirilgan [2].

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 76-moddasida bevosita muassasa o'z majburiyatlari bo'yicha ixtiyoridagi pul mablag'lari bilan javob beradi. Bu mablag'lар yetarli bo'lmasa, tegishli mol-mulkning egasi uning majburiyatlari yuzasidan subsidiar javobgar bo'ladi [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Sanoat korxonalarida aylanma mablag'lardan samarali foydalanish asosida moliyaviy barqarorlikni oshirish borasida o'z hissasini qo'shgan iqtisodchi olim, professor A.U.Burxanov tomonidan korxonaning aylanma mablag'lari o'zini-o'zi moliyalash talablari zarurati bilan izohlanashi hamda u korxona mustaqilligining asosi hisoblanishi haqida o'z fikrlarini bayon etgan. Shuni inobatga olish kerakki, korxona faoliyatini moliyalash o'z mablag'lari hisobiga amalga oshirish har doim ham foydali hisoblanmasligi, bu asosan mavsumiy xarakterga ega ishlab chiqarishda o'z aksini topishi, bunda ayrim vaqtida bank hisob-

raqamlarida katta hajmda mablag'lar yig'ilib qolishi va aksincha boshqa vaqtida mablag'larni topib bo'lmasligi haqida batafsil to'xtalib o'tgan [4].

R.N.Nakozin o'z tadqiqotlarda turli tarmoq va sohalarda faoliyat yuritayotgan korxonalar asosiy va aylanma mablag'lardan samarali foydalanish orqali o'z korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va bankrot bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kabi vazifalar dolzarb ahamiyat kasb etishi, aylanma mablag'lardan samarali foydalanishning yechimi sifatida uslubiy va statistik jihatdan tahlili yondashish lozimligi va aylanma mablag'larni to'g'ri boshqarish ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlovchi mexanizm bo'lishini ta'kidlagan [5].

N.A.Kalmakova ham o'z izlanishlarini aylanma mablag'larni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratgan bo'lib, aylanma mablag'larni to'g'ri va samarali boshqarish korxonaning rentabellik darajasiga ta'sirini oshirishga sabab bo'lishini izohlاب bergan. Korxonada aylanma mablag'larning har bir aylanish sikli ma'lum bir darajada korxona uchun foya bo'lib shakllanishi bu esa korxona rentabelligini ta'minlashni ta'kidlab o'tgan. Korxonada resurslarni boshqarish samaradorligini oshirishda sanoat korxonalarini kamaytirish va erishilgan natijalarni optimallallashtirish, pul oqimlarni tartibga solish orqali iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilab borish borasida o'z fikrlarini bayon etgan [6].

Darhaqiqat, yuqorida keltirilgan izohlarga ko'ra, mualliflik qarashlarini ilgari suradigan bo'lsak, aylanma mablag'larning hosil bo'lishi bevosita korxona tomonidan jalb qilinadigan pul mablag'lari evaziga shakllantirilishi hamda korxonaning aktivi sifatida doimiy aylanma aktiv sifatida harakatlanuvchi mexanizm sifatida talqin qilish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalari faoliyatida mavjud aylanma mablag'lardan foydalanish va uni samarali boshqarishda ularning to'lovga qobiliyatlichkeit darajasi bo'yicha tizimlashtirish muhim ahamiyatga kasb etadi. Shu bois, turli maqsadlar uchun to'lovga qobiliyatlichkeitning quyidagi ikki ko'rsatkichidan doimiy foydalanimidi:

- joriy likvidlilik koeffitsienti;
- absolyut likvidlilik koeffitsienti.

Shuningdek, joriy to'lovga qobiliyatilik koeffitsienti ma'lum bir sana uchun aniqlanib, uning aniqlanish tartibini quyidagi formula asosida keltirishimiz mumkin [7]:

(1)

bu yerda:


- joriy to'lovga qobiliyatilik koeffitsienti,
- aylanma aktivlar hajmi,
- qisqa muddatli passivlar.

Tahlil va natijalar

Ishlab chiqarish tarmoqlari va xizmat ko'rsatish sohalari uchun aylanma mablag'larning ahamiyati yuqori. Korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil etish va faoliyatini yuritishda har bir korxona korxona faoliyatidan kelib chiqqan holda pul mablag'lariiga ega bo'lishi talab etiladi.

Har qanday korxona shartnomasi bo'yicha majburiyatlar bo'yicha subsidiar javobgar hisoblanadi, shu bois, korxona shartnomasi tuzishdan avval ishlab chiqarish bo'yicha o'z rejalarini aylanma mablag'lari va ishlab chiqarish quvvatiga qarab belgilashi maqsadga muvofiq. 1-rasmida korxonada aylanma mablag'larni shakllantirish va undan foydalanishning moliyaviy mexanizmlari keltirilgan bo'lib, unga ko'ra ucta asosiy mexanizmdan, ya'ni usullar, elementlari va dastaklardan iborat. Har biri o'ziga xos ko'rsatkichlarni o'z ichiga qamrab olgan holda ular korxonaning moliyaviy holati ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlab chiqarish muammolarini bartaraf qilishni e'tiborga oladi.

Bevosita korxonada birinchidan, aylanma mablag'larni shakllantirish va foydalanishda har bir mexanizmning ishlab xususiyati uni to'g'ri rejalashtirish usuliga e'tibor qaratish lozimligi; ikkinchidan, turli davrlarda, ya'ni: uzoq muddatli, o'rta va qisqa muddatli ishlab chiqarish muammolarini bartaraf qilishni e'tiborga oladi.



Manba: Sohaga tegishli adabiyotlar va ma'yoriy huquqiy xujjalarni o'rganish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-rasm. Korxonada aylanma mablag'larni shakllantirish va undan

Aylanma mablag'larni shakllantirish, rejalashtirish va samarali boshqaruvni tashkil etish to'g'ri tanlanlansa, korxona samaradorligini oshishga xizmat qiladi. Korxona tomonidan doimiy ravishda axborotlarni umumlashtirish, moliyaviy holatini tahlil qilish va nazorat to'g'ri tashkil etilmasi, korxona aylanma mablag'larning hajmining pasayishi va uning tuzilishi bilan bog'liq turli iqtisodiy xavflarning paydo bo'lishi mumkin:

- korxonada tuzilgan shartnomaga ko'ra ta'minotchilar va xaridkorlar oldidagi vazifalarni bajara olmaslik xavflari;
- korxonada ortiqcha xarajatlarning paydo bo'lish xavfi, korxona faoliyatini tugatish yoki faoliyatini vaqtinchalik to'xtashi hamda turli mahsulotlarning yetishmasligi bilan bog'liq xavf-xatarlar;
- korxonaning istiqbolli faoliyatida to'lovga qobiliyatilik darajasi bilan bog'liq turli xavflar;
- korxonaning kreditni to'lash bilan bog'liq imkoniyatlarning pasayishi bilan bog'liq xavflar;
- aylanma mablag'lari xajmining pasayishi bevosita ishlab chiqarish jarayonining to'xtab qolish xavfining yuzaga kelishi bu esa korxona oldidagi majburiyatlarning bajarilmaslik tahlidini yuzaga keltirishi;
- korxonaning moliyaviy barqarorligiga ta'sir etadigan tahlidlar sifatida aylanma mablag'larning ortiqcha miqdori turli moliyalashtirish xarajatlarini ortishiga va korxona daromadini pasayish xavfiga sabab bo'ladi.

Sanoat korxonalarida aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish va tahlil qilishning mantiqiy ketma-ketligini quyidagicha izohlash mumkin:

Birinchidan, aylanma mablag'lar holatini vertikal tizimli tahlil qilishdan maqsad korxonada aylanma mablag'larni shakllantirish va undan samarali foydalanish yo'llari bo'yicha uning hajmi, tarkibiy tuzilishini aniqlashga qaratilgan individual tarzda jami ko'rsatkichlar nisbatlarini aniqlash va baholashga qaratiladi. Korxonada aylanma mablag'larning umumiy hajmini tahlil qilishda, bevosita ularning tarkibi va tuzilishini tizimli tahlil qilish, aylanma mablag'lar harakati, pul mablag'larning shakllanish manbalarini va turlarini tahlil qilishdan iborat.

Ikkinchidan, aylanma mablag'larni bosqichma-bosqich gorizontal tahlil qilishdan asosiy maqsad aylanma mablag'larning hajmi va tuzilishi ko'rsatkichlarni o'rganish, vaqt o'zgarishi tendensiyalarini aniqlash va miqdoriy jihatdan baholash (mutlaq o'sish ko'rsatkichlarni aniqlash, o'rtacha o'sishi).

Uchinchidan, korxonada aylanma mablag'larni qiyosiy jihatdan tahlil qilish, shuningdek, rejali, avvalgi yillardagi me'yoriy yoki mos yozuv ko'rsatkichlarni o'rganilayotgan yillar ko'rsatkichlari bilan taqoslama tahlil qilish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, aylanma mablag'larning koeffitsient tahlilida oldindan asoslangan turli ko'rsatkichlarni tizimida aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini baholashni nazarda tahlillar amalga oshiriladi.

Beshinchidan, korxonada aylanma mablag'larni boshqarish samaradorligiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi muhitning asosiy omillarini aniqlashni o'z ichiga olgan omillarni tahlil qilishdan asosiy maqsad aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligiga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillar tahlil qilinadi va ularni bartaraf etish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. Korxonada aylanma mablag'lar holati bo'yicha umumiy xulosalar shakllantiriladi va aylanma mablag'larni samarali boshqarish va holatni baholash bo'yicha yakuniy hisobot tayyorlanadi [8].

Iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda sanoat korxonalarining aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish ko'plab iqtisodiy va moliyaviy omillarga bog'liqdir. Shuningdek, aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi korxonalarining to'lov intizoming darajasiga hamda aylanma mablag'larning turli vazifalarni bajarish uchun joylashtirilgan kapital qo'yilmalarining hajmi bilan ifodalanadi. Shuningdek, korxonalarining ishlab chiqarish tarmoqlarida aylanma mablag'lardan samarali foydalanishiga ishlab chiqarishda kam chiqim innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni tashkil etganligi, xom ashyo va materiallar narxining pasayishiga ta'sir qiladi.

1-jadval

Korxonada aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligiga erishish ko'rsatkichlarning guruhanishi [9].

Korxonada aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligiga erishish ko'rsatkichlarning guruhanishi		Korxonaning boshqaruv samaradorligiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar
Ayriboshlash	Rentabellik	
Aylanma mablag'larning aylanish davri	Rentabellik darajasi	Aylanma mablag'larning o'rtacha (yillik, chora) summasi va aylanmani o'zgartirish orqali daromadlarning o'zgarishi
Aylanma mablag'larning guruhiy aylanmasi	O'z aylanma mablag'larning rentabelligi	Tezlashtirilgan ayriboshlash natijasida daromad miqdorining o'sishi
Aniqlanish koeffitsienti	Tezlashtirilgan ayriboshlash natijasida daromad miqdorining o'sishi	Ayriboshlash davomiyligini o'zgartirish orqali operatsion xarajatlar darajasini o'zgartirish
Aylanma mablag'lari ayrim elementlarning aylanish davri		
Operatsion aylanish uzunligi		

Korxonada aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligiga erishish ko'rsatkichlarni uch guruha ajratish mumkin, ya'ni ayriboshlash, rentabellik, korxonaning boshqaruv samaradorligiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlardan iborat. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish va muomala xarajatlarini minimallashtirish, ishlab chiqarish zaxiralari hamda ularning harakatini oqilonla tashkil qilinishi o'z ta'sirini ko'rsatadi. Aylanma mablag'larning (umumiy hajmi, tuzilishi, moliyalashtirish yo'nalişlari bo'yicha) holatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan foydalanish aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Korxonada aylanma mablag'lar samaradorligini belgilovchi ko'rsatkichlar 2-jadvalda keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, aylanma mablag'larning aylanuvchanligi kunlarda, aylanma mablag'larning aylanuvchanligi koeffitsientlarda, aylanma mablag'larning daromadligi hamda debitorlarning aylanuvchanligi bo'yicha samaradorligini aniqlash formulalari o'z ifodasini topgan [10].

Xulosa va takliflar

2-jadval

Korxonada aylanma mablag'lar samaradorligini belgilovchi ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlarning nomi	Nimani ifodalashi (mazmuni)	Aniqlash formulasi
Aylanma mablag'lar (Aym)ning aylanuvchanligi, kunlarda	Aym, bir aylanish davrinining necha kunga to'g'ri kelishini ko'rsatadi	<u>Aym</u> *Ks/Q Ks – davrdagi kunlарsonи
Aylanma mablag'lar (Aym)ning aylanuvchanlik koeffitsienti, martada	Tahliл davrida Aym ga qo'yilgan mablag'ning necha marta aylanishini ifodalaydi	Q / <u>Aym</u>
Aylanma mablag'lar (Aym)ning rentabelligi	100 so'm Aym. summasiga to'g'ri keladigan foydani (F) ko'rsatadi	F*100/ <u>Aym</u>
Aylanma mablag'lar (Aym)ning daromadiligi	100 so'm Aym. summasiga to'g'ri keladigan daromadni (D) ifodalaydi	D*100/ <u>Aym</u>
Debitorlarning aylanuvchanligi (kunlarda)	Debitorlarning (Deb) bir aylanish davri necha kunga to'g'ri kelishini ko'rsatadi	Deb*Ks/Q

Xulosa o'rнida aytish mumkinki, sanoat korxonalarida aylanma mablag'lardan foydalanan samaradorligini oshirishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega:

References:

1. Ўзбекистон Республикаси Бухгалтерия ҳисобининг Миллий стандарти “Асосий воситалар” ни тасдиқлаш тўғрисидаги 5-сонли БХМС.:Т.-2003, 114-сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига 2022 йил 9-декабрда 3400-сон билан рўйхатга олинган Ўзбекистон Республикаси Молия вазирининг 2022 йил 10-ноябрдаги 61-сонли бўйргуга 4-ИЛОВА. <https://buxgalter.uz/doc?id=708839>
3. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 21 апрелдаги ЎРҚ-683-сонли Конуни таҳририда - Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон. <https://lex.uz/docs/111189>
4. А.У.Бурханов. Саноат корхоналари молиявий барқарорлигини баҳолаш усули. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2018 йил. 18-бет.
5. Р.Н.Накозин. Совершенствование инструментария анализа и планирования использования оборотных средств организаций электросвязи: диссертация кандидата экономических наук: 08.00.05 Москва, 2006. 151 с.
6. Н.А.Калмакова. Оперативное управление оборотными средствами промышленного предприятия. Автореферат дис. канд. экон. наук: 08.00.05/ 08.00.10. Н.А.Калмакова: Южно-Уральского государственного университета. – Челябинск., 2010. - 25 с.
7. С.Маликов. Молия-хўжалик юритувчи субъектлар молияси. Ўқув кўулланма.-Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2009, 93-94-бетлар.
8. Н.Т.Тошмаматов, С.К.Хабижанов, А.А.Темиркулов. Особенности организации внутреннего аудита промышленного предприятия на примере Республики Узбекистан. Ж//Аудит и финансовый анализ. №1,2019. 77-81 стр. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=39539179>
9. B.Abduraximov, N.Qudbiev, I.Muminov. Aylanma mablag'larni boshqarish tijorat korxonasi muvaffaqiyatining asosi. Scientific Journal Impact Factor. VOLUME 1 | ISSUE 10 ISSN 2181-1784. SJIF 2021: 5.423
10. И.Т.Абдукаримов, М.Қ.Пардаев, Б.И.Истроилов. Корхонанинг иқтисодий салоҳияти таҳлили. – Т.: Иқтисодиёт ва хуқуқ дунёси, 2003, 86-бет...

birinchidan, korxonada mavjud pul mablag'larini sarflash jarayonini nazoratga olish (sarflashning real holatini analitik tahlil qilish, pul mablag'ları kirimini bashoratlash);

ikkinchidan, debitorlik qarzdorligi holatini doimiy nazoratga olish (o'tgan yillardagi ko'rsatkichlarni tahlil qilish, debitorlik qarzdorligini undirishga ta'sir qiladigan omillarni tahlil qilish);

uchinchidan, debitorlik qarzini undirishning yangi shakllarini joriy etish; xaridorlar bilan hisob-kitoblar holatini tahlil qilish va debitorlik va kreditorlik nisbatlarini nazoratga olish, shuningdek, debitorlik qarzdorligi bo'yicha bir yoki bir nechta yirik xaridorlar tomonidan to'lanmaslik xavfini pasaytirish uchun doimiy ravishda xaridorlar ko'lamini kengaytirib borish;

to'rtinchidan, sanoat korxonasining kreditorlik qarzlarini darajasini doimiy nazoratga olish qilish, kreditorlik qarzlarini kamaytirish choralarini ko'rish.